

Fal.f.n., dots. Poʻlatova Dildora
ToshDSHI Falsafa kafedra mudiri
Jurayev Sherali
ToshDSHI 2-bosqich magistranti

IBN SINONING “AL-ISHORAT VA AL-TANBIHOT” ASARIDAGI BORLIQ MUOMMASINING KOGNETIV TAHLILI

Kalit soʻzlar: borliq, metafizika, aniqlash, koinot, olov, yer, havo, yorugʻlik, suv, modda, “Ishoralar va tanbehlar”.

Key words: being, metaphysics, determination, the universe, fire, earth, air, light, water, substance, “Reprimand and gesture”.

Ключевые слова: бытие, метафизика, детерминация, вселенная, огонь, земля, воздух, свет, вода, субстанция «Замечания и названия».

Annotatsiya: Maqolada Ibn Sinoning “Al-Ishorat va al-tanbihot” asaridagi borliq muommasining kognitiv tahlil etilishi va bu asardagi falsafiy gʻoyalarni jamiyatga tatbiq etish koʻzda tutilgan. Shuningdek, mazkur maqolada Sharq falsafasining ayrim masalalariga yechim topishda foydalanish mumkin.

Annotation: The article deals with the cognitive analysis of the essence of the essay by Ibn Sina in the book “Al-Isharat and al-tanbiyhoh” and the introduction of philosophical ideas into society. This article will also be used to find solutions to some of the philosophical issues of the Oriental philosophy.

Аннотация: В статье рассматривается когнитивный анализ сущности эссе Ибн Сины в книге Аль-Ишарат и аль-Танбийхот и введение философских идей в общество. Эта статья также будет использована для поиска решений некоторых философских проблем восточной философии.

Maʼlumki, yoshlar intellektual salohiyat va ilgʻor texnologiyalarni egallash bilan birga milliy va umumbashariy qadriyatlar uygʻunligining zaruratini chuqur anglab yetishlari zarur. Bu zaruriyat nima bilan izohlanadi? Maʼlumki, intellektual salohiyat va ilgʻor texnologiyalar avvalo, jamiyatning moddiy asoslarini, iqtisodiy taraqqiyotini, harbiy qudratini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda muayyan darajada jamiyat aʼzolarining moddiy farovonligini taʼminlashga ham taʼsir koʻrsatadi. Bu xizmat va taʼsirning jamiyat uchun, jamiyat aʼzolari uchun qay darajada manfaatli boʻlishi intellektual salohiyat va ilgʻor texnologiyalardan qanday maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalanishga bogʻlik. Shu sabab asosiy urgʻu aynan milliy va umumbashariy qadriyatlarning uygʻunligini teran anglashga, yaʼni tafakkurlash madaniyatini shakllantirishga qaratilgandir.

Men faylasuvning “Ishoralar va tanbehlar” falsafiy kitobida bayon etilgan borliq, bilmoqlik, olam haqidagi qarashlarini tahlil qilaman. Bu asar – Ibn Sinoning antologik gnoseologik qarashlarining muhim xususiyatlarini aks ettiradigan asardir. Shuni aytish mumkinki, ushbu asarda Ibn Sino tomonidan belgilab berilgan ontologiya arab falsafasi uchun oʻziga xos dasturiy amal vazisini bajaradi. Ibn Sino fikriga koʻra, falsafa faqat borliqni oʻrganmogʻi kerak:

“Shuni nazarda tutish mumkinki, oliy fan shu tarzda namoyon bo’ladi, uning ustida boshqa fan turadi va u borliqni o’rganadigan fanga intiladi hamda uning alohida xususiyatlarini tadqiq qiladi. Aynan mana shu fan oliy falsafa deyiladi”¹. Boshqacha qilib aytganda, borliqni (ontologiyani) o’rganuvchi fan bu oliy falsafadir. “Mantiq” nomli o’z traktatining birinchi qismidayoq Ibn Sino bu masalaga to’xtaladi va shunday ta’kidlaydi: bu shunday fanki, unda inson ongida mavjud tushunchalardan u bilishni istagan tushunchalarga o’tish usullari o’rganiladi². “Al-ishorat va al-tanbihot” asarining 2-qismi “fizika va metafizika” deb nomlanadi. Unda 10 sharh bo’lib, uchtasi – fizikaga, keyingi uchtasi – ontologiyaga, oxirgi to’rttasi mistikaga bag’ishlangan. Falsafa – borliq (mavjudlik) to’grisidagi universal fandır. Ibn Sinoning universal metafizikaning nazariy fizika haqidagi umumdunyoviy asosga tayangan qismiga tegishli. Faylasuf Semiotlarning “borliq”, “bor bo’lmoq” ma’nosidagi so’zlarini xususiyatlariga to’xtaladi. Bunga yakun yasab, shunday deyiladi: Har qanday belgilangan tarzdagi borliq potentsialdir. Mavjudlik yagona boshlanishga egaligini isbot qilish – “Arxz” - Ibn-Sino universal fanining asosiy vazifasidir. Avitsinaning ilk mavjudligi olamda ham mavjud, ham mavjud emas.

Ibn-Sinoning ijodi tahlilchisi va biografi mashhur olim A.V.Sagadiyev ta’kidlashicha Ibn Sino fikricha – borliqni narsaga (predmetga) bog’lash uni tasdiqlash degani, affirmatsiya (isbot), ya’ni uni mavjud bo’lishi uchun asos bor degani. Universal fanning yakuniy maqsadi ushbu asos mavjudligini barcha borliq uchunligini isbotlashdir. Ibn Sinodan oldingi qarashlar, uning qarashlariga amal qilish tartib bo’yicha, tabiat bo’yicha, xususiyatlari bo’yicha, vaqt hamda sabab bo’yicha bo’ladi. So’ngra aksidental sabablar tufayli paydo bo’ladigan guzal aloqa haqida so’z yuritiladi. Borliqni o’z boshlanishiga aloqadorlik nuqtayi nazaridan qaralsa bu boshlanish olamdan oldingi vaqtda mavjudligi masalasi yuzaga chiqadi, ya’ni olamni xudo yaratganligi. Bu yerda Ibn-Sino olamning abadiyligini isbotlaydi, xudoning taxmindagi faolaiyatini metafizikaning universal qonunlariga bo’ysundiradi, umumiy determinizmni tasdiqlaydi. Umumiy determinizmni metafizik ikki juft tushunchani ta’riflash orqali asoslab beradi: sabab va harakat tushunchalari, potentsiallik va dolzarblik tushunchalari.

Avitsina, fikrlar izlanishida davom etib, borliq haqidagi quyidagi fikrni ta’kidlaydi. Uning aytishicha – u haqidagi bilish zaruriyat nuqtayi nazari burchagi ostidadir. Bundan shunday xulosa chiqaradiki, har bir narsa o’z sababiga ega, ammo narsalar sababi bizga ma’lum emas, demak, ularga bo’lgan zaruriyat ham bizga ma’lum emas, shuning uchun bizlar ayrim sabablarnigina bilamiz, xolos. “Borliq va uning sabablari haqida” asarini yakunlar ekan, Ibn Sino ta’kidlaydi: “Yaratganni borligini, birligini hamda hech narsaga muhtoj emasligini isbotlashda bizlar borliqni bayon etdik xolos, Olloh yaratgan va barpo etgan hech narsaga to’xtalmadik. Ular yaratganni borligini aynan isbotlasa ham ammo, bu masala juda murakkab va nozik, ya’ni borliqni holatini anglash, u borliqda bizga ergashuvchi barcha narsalar borligini isbotlaydi”³. Bu fikr nimadan dalolat beradi? Birinchidan, borliq (ilk borliq)

¹ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 294

² Сагадеев А.В. Ибн Сина (Авиценна). – М. Мысль 1980,

³ Сагадеев А.В. Ибн Сина (Авиценна). – М. Мысль 1980,

yagonadir, ikkinchidan – uni atributlari (o’ziga xos xususiyatlari yo’q). Ontologik birlik va atributlarning yo’qligi o’zaro bog’liq va bir-birini to’ldirib turadi. Ilk yaratilganlik birga mavjud narsalar uchun asos bo’lib keladi va hech qanday atributlarga ega bo’lmaydi, chunki u o’zi atrofdagi narsalarni atributlar bilan ta’minlaydi. U borliq mavjudlik sifatida emas, balki yagonalik sifatida anglanadi. Inson intellektidagi universallik va anglash qobiliyati haqida Ibn-Sino shunday deydi: “Bizlar biron narsani ko’rganimizda, bizning xotiramizda ko’rinish shakli muhrlanib qoladi, shunday narsaning boshqa turini ko’rganimizda, ongimizda saqlanib qolgan shakl bilan qiyoslanganda biz boshqa hech qanday yangilik olmaymiz”. Shunday qilib Ibn Sino Berklining idealistik naminalizm ruhidagi mavhumliklar nazariyasiga kelib chiqadi, ya’ni u real holatda universallik muammolarini yechimini rad etadi hamda shuni ta’kidlaydiki, borliq va bor bo’lmoqlik mohiyati orasidagi farq nafaqat fikran, real tarzda ham mavjud bo’lishi kerak. Demak, borliqdagi bor bo’lmoqlik shakli ilk materiadan farqli tarzda kifoya qilmog’i kerak, chunki ilk materiya shakl bilan yaxlitlikda bo’ladi, ya’ni tana shaklida, tana esa shakl va ilk materiya birligi bo’lgani uchun o’z borligini sababiga ega bo’lolmaydi. Bor bo’lmoqlik deydi, Ibn Sino yoki zaruriy, yoki ro’yobga chiqadigan, yoki ro’yobga chiqmaydigan bo’ladi. So’ngra borliqli- zaruriyatli – o’z-o’ziga xoslik bor bo’lmoqlikning mohiyati haqida so’z yuritiladi, va shunday xulosa qilinadiki, olamda zarur bo’lgan borliq boshlanishi mavjud bo’lib u hech qanday turga mansub emas, isbot talab qilmaydi. Son va sifatga ega emas. U to’liq tarzda yagonadir, zero u qismlarga bo’linmaydi, ya’ni borliq va bor bo’lmoqlik uzviy bog’liqdir, yaxlitdir. So’ngra Ibn-Sino zaruriyatli – borliqli boshlanishga bog’lanishlik va inkor etishlik xususiyatlarini berganligi to’g’risida so’z yuritiladi.⁴

Ibn Sino o’zining oxirgi yozgan asarini mantiq va metafizikaga bag’ishlab, unda olamning tuzilishi va atributlari, olamni anglashda mantiqiy nazariyalarga asoslanishi kerakligi va mantiqning usullari haqida fikr bildirgan. “Al-ishorat va tanbihot” asarining ikkinchi qismi metafizikaga bag’ishlangan bo’lib, 22 bobida olim quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

هذه هي أصول الكون و الفساد في عالمنا هذا. و هي الأركان الأول، و بالحرى أن تتم بها عدة ذوات الحركة المستقيمة. حين يوجد خفيف مطلق ينحو نحو جهة فوق كالنار، و ثقيل مطلق كالأرض، و خفيف ليس بمطلق كالهواء و ثقيل ليس بمطلق كالماء.

Tarjimasi:

Bu koinotning kelib chiqishi va dunyoning yaralishidir. Bu birinchi ustunlar, aksincha, bu borliqdagi usullar bir qancha to’g’ri hatti harakatlarga to’g’ri keladi. Borliqda mutloq yengil olov bor va mutloq og’ir bo’lgan yer bor, havoda mutloq bo’lmagan nur bor, ya’ni mutloq og’ir bo’lmagan havo bor va mutloq og’ir bo’lmagan suv bor.⁵

Izoh:

Ibn Sino “Al-ishorat va al-tanbihot” asarining ikkinchi bo’lim 22-bobida koinotning kelib chiqishi va dunyoning yaralishi haqida yozib o’tgan. Olamni tashkil etuvchi unsurlar bular: olov, yer, yorug’lik, havo va suvga ishora qilyapti.

⁴Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 172-180

⁵ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot” (Nasriddin at-Tusiy sharhi) Qohira 1365. – B 162

Manashu 5 ta unsur olamni tashkil etadi deydi. Ya’ni bular bir-biri bilan uzviy bog’liqlikda bo’ladi.

و أنت إذا تعقبت جميع الأجسام التي عندنا. وجدتها منتسبة بحسب الغلبة إلى واحد من هذه التي عدناها.

Tarjimasi:

Agar bizda bo’lgan hamma jismlarni o’rganib izlasang, biz sanagan narsalardan bittasini albatta topasan.⁶

Izoh:

Olamdagi jismlarni yaxshilab tahlil qilsak, sabab va oqibat tushunchalari orqali olamdagi unsurlarni bilib olishimiz mumkin.

Shayx ul-ra'is Ibn Sino “Tanbihot” asarining 23- bobida quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

هذه يخلق منها ما يخلق, بأمزجة يقع فيها على نسب مختلفة معدة نحو خلق مختلفة – بحسب المعدنية و النبات و الحيوان - : أجناسها و أنواعها.

Tarjimasi:

Hamma narsalar yaratilgan narsalardir. (Bu ular yaratadigan narsalarni yaratdi, ular turli xil hossalari uchun tayyorlangan turli xil nisbatlar aralashmasi bilan – metallar, o’simliklar va hayvonlar bo’yicha – ularning turlari va turlari haqida fikr yuritadi)⁷

(2) و لكل واحدة من هذه, صورة مقومة, منها تتبعث كفياته المحسوسة, وز بما تبدلت الكيفية و إنحفظت الصورة, مثل ما يعرض للماء أن يسخن, أو أن يختلف عليه الجمود و الميعان, و مائيته محفوظة.

Tarjimasi:

Ularning har biri uchun uning aniq xususiyatlarini chiqaradigan o’lchamdagi tasvir, suvning issiqlik ta’siriga tushishi yoki harakatsizligi va eritmasidan farqli ravishda tasvirning o’zgarishi va tasvirning qanday yo’qolishi va suvning saqlanishidir.⁸

Izoh:

Ya’ni bunda moddalarning bir-biriga ta’sir etganda sodir bo’ladigan jarayonlar aks etmoqda.

و تلك الصورة – مع أنها محفوظة – فإنها ثابتة لا تتبدل و لا تضعف. و الكيفيات المنبعثة عنها بالخلاف

Tarjimasi:

Bunday ko’rinish unaqa ham bo’lmaydi, bunaqa ham bo’lmaydi. Qanday bo’lsa shunday saqlanadi. Bir biriga qarshi bo’lgan turli xususiyatlar paydo bo’ladi.

و تلك الصورة مقومة للهوى, على ما علمت. و الكيفيات أعراض. و الأراض – كائنت – ما كانت - لواحق, فلذلك لا تعد الور من الاعراض.

Tarjimasi:

Va bunday ko’rinishlar mening bilishimcha birlamchi moddaning asosidir. Xususiyatlarning belgilaridir. Yer – obyektlar atamalarining ma’nolari, shuning uchun belgilar (zarralar) hisoblanmaydi

⁶ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot” (Nasriddin at-Tusiy sharhi) Qohira 1365. – B 163

⁷ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot” (Nasriddin at-Tusiy sharhi) Qohira 1365. – B 164

⁸ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot” (Nasriddin at-Tusiy sharhi) Qohira 1365. – B 165

Zaruriyatli – borliqni absolyut birligiga oid mavzu haqida Ibn-Sino deydi: Bunga nisbatan shuni aytish mumkinki, ilk borliqni faqat nuqta bilan taqqoslash mumkin. Soʻngra, qandaydir qutb-nuqta haqida soʻz yuritiladi, uni zaruriyatli – borliq bilan taqqoslash haqida fikr aytiladi. Qutb zaruriyatli – borliqni olamga nisbatan bir vaqtning oʻzida ham yaqinligi, ham uzoqligini, shuningdek olamning zaruriyatli – borliqsiz mavjud boʻlolmasligining ramzi sifatida, hamda shakl va materiyaning yaxlitligi, aktuallik va potentsiallikni yaxlitligini ramzi sifatida yuzaga chiqadi. Shuningdek, qutb ramzi shunday mʼnoga egaki, borliqli – zaruriyatlik bir vaqtning oʻzida borliqning ham amaldagi, ham maqsadli sababi boʻlganligi ahamiyatga ega. Yaʼni, uning bu roli epifenomen xususiyatiga ega boʻladi, axir u oʻzida mujassamlashtirgan yer oʻqi olamni doira boʻylab harakatlanishga majbur etadi. Boshqacha qilib aytganda, borliq va mangulikka intilmoq mangu borliq bilan yaxlitdir. Ibn Sinoning keyingi fikrlari boʻyicha, noborlikka nisbatan muhabbat tuygʻusi boʻlishi mumkin emas, chunki u absolyut yovuzlikdir. Oxir-oqibat biz tabiatshunoslikni mustahkam falsafiy poydevorga qoʻyishga taalluqli fikrlarning asosiy qismiga ham yetib keldik. Demakki, mantiqiy usulda isbotlanadiki, metofizik nuqtaga keltirilgan ushbu olam zaruriyatli – borliqdir. Bu haqda soʻz yuritilganda, shuni aytish joizki, baʼzi holatda u real tarzda berilgan jismoniy olam deb qabul qilinsa, boshqa holatda – xuddi uning metofizik mavhumligi va mantiqiy xususiyati deb qabul qilinadi. Oʻz traktatida Ibn Sino gnoseologik muammolarga ham eʼtibor qaratadi. Nomaʼlum boʻlgan narsa oʻrganiladi, anglanadi. Buni qanday amalga oshirish mumkin? Ikki yoʻl bilan: Ratsional fikrlash va intuitsiya orqali. Ratsional fikrlash orqali anglash uchun, deydi Ibn-Sino, oʻrtacha atama belgilab olinadi, uni vositasida noʻmalum narsaga nisbatan biron bir xulosa olinadi. Ratsional fikrlash – fikrning ushbu oʻrtacha atamani izlashga boʻlgan harakati. “Intuitsiya esa – oʻrtacha atamani ongda toʻsatdan kuchli ishtiyoq yoki xohish natijasida, yoki hech qanday xohishsiz tarzda ifodasi paydo boʻlishidir.”⁹ Intuitsiyaga murojat qilar ekan, Ibn Sino irratsional qarashlar tarafdori (Intuitivisti) boʻlib qolmaydi; u, koʻproq fenomenologdir va aprior ong imkoniyatlariga koʻproq tayanadi. Uni aytishicha, bir narsa ikkinchisini oʻzining bor boʻlmoqlik vositasi bilan angelaydi: “Demak, boshqa narsani anglay olgan narsa oʻzining bor ekanligini ham anglay olishi kerak anglab boʻladigan barcha narsalar boshqa anglanadigan narsalar bilan bogʻliq boʻlishi zarur.”¹⁰

“Agar narsaning bor ekanligi shak-shubhasiz boʻlsa, demak, uni ongli tasavvur bilan bogʻliqligi ham muqarrardir. Demakki, bu bogʻliqlik unga potentsial jihatdan tegishli”¹¹

“Ongli tasavvur” deganda bu yerda yaratganni nazarda tutadi, yaʼni borliqni obrazi (aristotelga qarash boʻyicha). Ammo u oldinroq aytilgandek, ratsional tarzda anglab boʻlinmasa, qanday qilib uning “ongli tasavvuri” paydo boʻladi?

“Javobim shuki, - deydi faulasuf, -chunki u oʻz borligida mustaqil emas, hamda ongli tushunchalarning substraki (asosi) emas, aksincha, tasavvur gʻoyalarining ong

⁹ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 329

¹⁰ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 333

¹¹ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 334

tushunchlari bilan bog’liqligi ularni ongda aks ettirmaydi, balki ularning birgalikda olingan substrati (asosi) deb tushuniladi. Ular orasidagi bog’liqlik tasavvur va unda aks etadigan narsalar orasidagi bog’liqlik emas. Uni tashqi borliqligiga kelsak, u material tarzda mavjud. Ammo, biz so’z yuritayotgan bor ekanlik, bizning taxminga ko’ra, o’z asosida mustaqil substansiyadir. Agar unga anglovchi bor ekanlik qo’shilsa, u imkon darajasida anglanuvchi bo’lib qoladi”¹². Nima nazarda tutilyapdi? Yuqoridagi fikrlarga asoslanib Ibn Sino ongni fenominalogik usulini nazarda tutadi, unda subyekt – obyekt tushunchalari yo’q va u kategorik mushohadaga asoslanadi. “O’ziga nisbatan mustaqil substansiya bo’lgan bor ekanlik agar unga ongli bor ekanlik qo’shilsa, u anglanuvchi bo’lib qoladi” degan fikr kelib chiqadi. Ibn-Sino transental subyekt muammosini yaxshi tushunadi, “o’zingdagi anglash obyekt nima ekanligini bilasanmi?” degan savolga, u shunday javob beradiki, tuyg’ular, faoliyat, organlar, inson tanasi obyekt bo’la olmaydi¹³. “Demak, - deydi faylasuf, - sendagi anglash kerak bo’lgan narsalar bular emas ekan, u boshqa narsa ekan. O’sha narsani sen angalay olmasliging ham mumkin, ammo o’zingni bor ekanligingni, mavjudligingni, baribir, anglab olasan. Sen mavjud bo’lishing uchun bu narsalar zarur ham emas”¹⁴.

Mushohada kategorial tushuncha bo’lganligi uchun, - ta’kidlaydi Ibn-Sino, - tuyg’uli anglash tadqiqotidan tuyg’usiz anglash kelib chiqadi, bu esa qiziq hol!”¹⁵. “Borliq va vaqt” asarida “haqiqatning an’anaviy konsepsiyalari va uning ontologik asoslari” masalasini ko’rib chiqar ekan, Haydegger Avitsenaga yuzlanadi, u esa, ma’lumki, yevropa falsafasi tarixida muhim rol o’ynagan. A.V.Sagadeev takidlashicha, agar Ibn-Sino o’z gnoseologiyasida fenomenologik qarashiga ega bo’lsa, balki uning ontologiyasi ham fenomenologikdir, ya’ni Nagardjuna ontologiyasi kabi? Bir qarashda, Shunya-Vada muallifi (bo’shliq haqida ta’limot va faylasuf o’rtasida qandaydir umumiylik borligi haqidagi masala ajablanarliddek tuyuladi. Faylasuf fikricha “bo’shliq o’z – o’zicha ro’yobga chiqmaydi, u bir sabab bilan paydo bo’ladi. Ammo, ilgari bo’shliq o’z mohiyatiga ko’ra ro’yobga chiqa olmaydi degan fikr mavjud edi”¹⁶. Ushbu iborada “bo’shliq” so’zi ikki xil ma’noda tushuniladi. Ontologik ma’noda “bo’shliq o’z-o’zicha ro’yobga chiqa olmaydi”, Ontik ma’noda esa (borliqni jismoniy bo’shlig’i ma’nosida) – bo’shliq mavjud narsa emas, chunki absolut tarzidagi bo’shliq bo’lmaydi”¹⁷. Nagardjunaning (Shun’e) ontologik bo’shlig’iga Ibn-Sino ta’limotidagi noborliq mos keladi. Ma’lumki, Nagardjuna quyidagini ta’kidlaydi: Toki mustaqil borliq yo’q ekan, ya’ni barcha mavjud narsalar o’zaro bog’liq ekan, demak – o’zaro borliq ham yo’qdir, u bo’shliqdir. Ibn Sino ham shunday taxmin qiladi: “Boshqa narsalar vositasida mavjud bo’lgan barcha narsalar noborliq tasarrufidadir, agar u (O’z sababidan) ajralsa yoki u umuman borliqqa ega emas, agar (o’z sababidan) ajralib chiqsa. Aksincha, u boshqa narsalar orqaligina borliqqa ega bo’ladi”. Endi muhim maslaga to’xtalamiz, bunda

¹² Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 334

¹³ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 323

¹⁴ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 323

¹⁵ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 339

¹⁶ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 366.

¹⁷ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 310

ontologik tafakkur borliqligi ifoda etadi: Ibn Sinoni olamdagi – borliq haqidagi fikri qanday? Shunday qilib, Ibn Sino olam borliqligi haqidagi masalani koʻtarib chiqqanmi? Oʻrta Osiyo faylasufi nafaqat bu masalani koʻtaradi, u shuningdek, bu masalani oʻziga maʼlum boʻlgan bir necha koʻrinishlariga ham toʻxtaladi. “Baʼzi bir olimlar aytishicha, - deydi u, - olam oʻz borliqligiga mos boʻlgan vaqtda yaratilgan. Boshqalari esa, olamning borliqligi faqat u yaratgan vaqtlar aytishicha, olam borliqligi hech qanday vaqt tushunchasi bilan bogʻliq emas, hech qanday omil bilan ham bogʻliq emas, u faqat yaratganga tobe, yaratgandan esa, nega u buni qildi yoki qilmadi deb soʻrolmaydi.

Bu omillarga qarshi chiqqan boshqa guruh bor, ular yaratganni borligini va birligini tan olgan holda, shuni taʼkidlaydiki, zaruriyatli bor ekanlik oʻzining barcha ilk yaratilgan atributlari va holatlarga koʻra zaruriyatli bor ekanlikka aylanadi”¹⁸. Ibn Sino bunga qanday javob qaytaradi? Beshinchi sharxni yakunlar ekan (“Yaratish va barpo etish toʻgʻrisida”), faylasuf “zaruriy bor ekanlik yaxlitligini tan olish” zaruriyatini koʻrsatib oʻtadi. Shunday deydi: - u, “aniq boʻladiki, zaruriy bor ekanlik yaratuvchisini oʻzi zaruriy bor ekanlik, va uni narsalarga va vaqtga boʻlgan munosabati oʻzgarmaydi. Bu munosabat natijasida kelib chiqadigan barcha narsalar borliq atributi boʻlib hisoblanadi, faqat farqlanishiga koʻra sodir boʻladigan oʻzgarishlarga ega narsalardan tashqari”¹⁹. Boshqacha qilib aytganda transendent zaruriy borlik mavjud (Arastu”Xudosi”) u olam yaratuvchisidir; U olam yaratuvchisi boʻlsa ham zaruriy borlik unda immanent holatda boʻladi, u doimiy borliqlik atributi sifatida, yaʼni – Olloh olamda uning oʻzgarmas borliq shaklida namoyon boʻladi. Bunday borliq ontologiya tilida borliqlik deb nomlanadi. Boshqa barcha (oʻzgaruvchan narsalar) oʻzi borliqqa kirmaydi. Olamdagi – narsa shaklida boʻlib, oʻzidagi – narsa shaklida boʻlmagan ular noborlikda boʻlishadi, shu sabab fenomenal tarzda boʻlishadi “Mistiklar darajalari haqidagi” asarning 9-sharxidan (“Ishoralar va tanbehlar”) oldinroq Ibn Sino tomonidan “shodlik va baxt haqida” deb nomlangan sharx keladi. Bu tasodif emas. Nega? Chunki, insonga oliy baxtni ekstaz holatdagi anglash, tushunib yetish beradi, bu holatda inson unga transendent boʻlgan Xudo bilan birlashadi. Ibn Sino tomonidan mistiklar (oriflar) deb atalgan bunday insonlar ruhiy bemorlar emas, koʻpincha ular haqida shunday fikrga beriladi. Bu narsalar haqida buyuk olim va buyuk tabib oʻz asarida shunday yozadi: “Oʻz ruhiy holatiga koʻra sogʻlom, yerdagi ogʻir munosabatlar oqibatida zolimga aylanmagan bu insonlar ruhiy chaqiriqni eshitishga, transendent narsalar holatiga oʻxshash holatga tushib qoladi, va oʻzlari ham tushunmaydigan bir parda ularni yopgandek, tasvirlab boʻlmaydigan ekstaz holatiga tushishadi, hamda oliy rohatni his etishadi, bu holat oʻzlarini ham hayron qoldiradi. Oʻzini belgilangan yoʻnalishiga ega bu hol koʻplab tajribadan oʻtgan va eng oliy rohat deb hisoblanadi”²⁰. Ibn Sinoning xulosasiga koʻra, aynan shu narsa “Donishmand insonlar rohati” deb hisoblanadi. Faylasuf savol beradi: “Nima uchun transendentlikni anglamoqchi boʻlgan inson bundan shunchalik huzur oladi”? Chunki, borliqning tabiati aynan shunaqa. “Hamma narsaga xursand

¹⁸ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 353

¹⁹ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 355

²⁰ Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 386

boʻladigan, eng baxtli ulugʻlashdir, zero aynan u mukammal narsalarni anglab, tushuna oladi”. Inson Transsendentlikni anglash jarayonida borliq oʻz-oʻzini tushunib yetadi. Ushbu jarayonni amalga oshirish, yaʼni borliq sirini anglash uni haqiqat vositasida ekstazik namoyon boʻlishlik shaklida koʻrinadi. Ekstaz – insonning alohida bir holati boʻlib, unda gʻam chekish, hasrat yoki transsendentlik (Borliq) bilan birlashish amalga oshiriladi. Ibn Sino aytishicha, dunyoviy rohatlardan voz kechgan “asket” (zohid) ham, “taqvodor” (obid) ham, diniy marosimlarni bajarishda faollik koʻrsatsada, borliq haqiqatini tushuna olmaydi, va uning sirlari ochilmaydi. Bunga faqat “ilohiy kuch muqaddasligi haqidagi fikrlar bilan yashovchi, sirlarni haqiqat mashʼalasi bilan ochib berishga muntazam intiladigan insongina erisha oladi, hamda bunday inson “mistik” (orior) deb ataladi.²¹ “Sirlardan haqiqat mashʼalasi bilan ochib berish” yagona borliqni mistik tarzda tushunish deb aytish mumkinmi? (vaxdat al-vudjut) Mumkin, - deydi faylasuf, - zero “mistik” bilimlar yaratganni anglash orqali yakunlanadi”.

Ibn Sinoning fikrlariga yakun yasalar ekanmiz, shunday xulosa qilamizki, uning antologiyasi oʻz-oʻziga – bor ekanlik universaliasiga ega emas, faqatgina gʻoya (manna) bor, u vaziyatga qarab bizning tasavvurimiz – materiyasi sifatida baʼzan individual, baʼzan aqliy shaklga ega boʻladi. Oʻz oldiga Borliq haqidagi masalani qoʻygach, Ibn Sino uni anatologik tahlil qiladi, yaʼni u taʼkidlaydiki, aqldan tashqaridagi narsalar, yaʼni dastlabki realliklar boshidanoq metafizika koʻrib chiqadigan nasaga aylanadi. Shu tarzda Ibn Sino har bir predmetni olar ekan, uni anʼanaviy tarzda tarkibiy qismlarga boʻladi, hamda shu orqali bu alohida qismlar bir-biriga oʻzaro bogʻliqligini kuzatadi. Konkret bor ekanlik borliqni yuqori darajali nuqtai nazaridan koʻrib chiqiladi – yaʼni substansia va aksidensia nuqtai nazaridan. Tana tarkibiy substansia boʻlib unda shakl va materiyani ajratish mumkin ular uning saqlaguvchi idishi sifatida qabul qilinadi.

Ibn Sino borliq muommasining muhim masalalarini talqin etish borasida diniy axloqqa ham zarba beradi. U aytgan ajoyib fikr-mulohazalar, uning falsafiy qarashlari hozirgi davrda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq.

²¹Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot”, – B 388